

MAHSUS MAKTABLARDA ÒQUV TARBIYA JARAYONI**Mamanov Bahriddin Xudoyberdiyevich***JDFU, Ta'lim muassasalari boshqaruvi 1-bosqich magistranti**(Jizzax viloyati Jizzax shahar)*

Annotatsiya: *Ta'lim — bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.*

Kalit so'zlar: *Bilim ko'nikmasi, Ta'lim to'g'risidagi qonuni, defektolog mutaxassis*

Ta'lim o'quvchining bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. O'quvchilar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo'ladi. Didaktik tamoyillarda ta'limning mazmuni va jarayonlariga qo'yilgan talablar belgilanadi (qarang Didaktika). Ta'limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek muayyan o'quv yurtlari funksiyasiga muvofiq tarixan o'zgarib boradi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. 1996-yildan boshlab lotin imlosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi joriy etildi va shu yildan boshlab yangi yozuv asosida dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar yaratishga kirishildi, o'qituvchilar lotin imlosi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bo'yicha qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazildi. Xalq ta'limi bo'limlari qoshida bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini belgilaydigan „Tashhis markazlari“ tashkil etildi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini reyting asosida nazorat qilish, maktab bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyasini kompyuter yordamida test orqali amalga oshirish, Ta'lim amaliyotini diagnostik taxdil etish, Ta'lim muassasalarida marketing tizimidan foydalanish kabi qator pedagogik yangiliklar joriy etildi (qarang Ta'limning milliy modeli).

Tarbiyalash jarayoni bu shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning murakkab tizimidir, unga tashqi ta'sirlar ham, tizimning o'zi ham kiradi.

Maxsus (tuzatish) maktabdagi o'quv jarayonining murakkabligi shundan iboratki, natija ommaviy maktabdagi kabi sezilmaydi. Ammo „bolada aqliy zaiflik mavjudligi u bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning umumiy mafkuraviy yo'nalishini o'zgartira olmaydi. Maxsus (tuzatish) maktabda o'quvchilarni tarbiyalashda umumiy mafkuraviy yo'nalish ommaviy maktab uchun bir xil bo'lib qolmoqda. Ammo, maktab aqliy rivojlanishini cheklagan bolani rivojlanish xususiyatlarini maktab ta'lim muammolarini hal qilganda

hisobga olish mumkin emas, maxsus (tuzatish) maktabda ta'lim muammolarini hal qilish darajasi ommaviy maktabga qaraganda boshqacha, boshlang'ichroq bo'ladi. "

Ya'ni, maxsus (tuzatish) maktabdagi o'quv jarayoni ommaviy ravishda bo'lgani kabi, yanada dinamik, harakatchan va oldindan aytib bo'lmaydi. Intellektual nogiron bolalarni tarbiyalash alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa toifalariga nisbatan katta qiyinchiliklarga olib keladi. Maxsus ta'lim tizimi deganda jismoniy va ruhiy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarga (ko'zi ojiz, kar-soqov, aqli zaif, tayanch harakali apparatida nuqsoni bo'lgan, nutq nuqsoni bo'lgan bolalar) aniq maqsadni ko'zlab «korreksiya», «kompensatsiya», «reabilitatsiya» ishlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalari: ko'zi ojiz bolalar uchun, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun, aqli zaif bolalar uchun maktab-internatlar tushuniladi.

Har bir mamlakat xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimiz istiqloлга erishgandan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yetuk defektolog mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga asoslangan holda fuqarolarning millatidan, dinidan, jinsidan, ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, ta'lim olishga huquqliligi tamoyili qaror topgan. Nogironlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishni davlat o'z burchi deb biladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab nogiron bolalarga maxsus ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, yangi milliylik va o'z-o'ini anglash ruhida tarbiyalash, o'qitish, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari tayyorlasiga katta e'tibor bermoqda, bundan tashqari nogironlarni himoya qilish bo'yicha bir qancha buyruqlar va qarorlar tayyorlangan. Xalqimizning, shu jumladan, nogironlar va nogiron bolalar, ularning jismoniy, aqliy, psixik rivojlanishini yaxshilash, hayotga moslashtirish yo'llarini ishlab chiqish ko'rsatilgan.

Nogironlikning oldini olish va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish yuzasidan Vazirlar mahkamasining 1995-yil 11-noyabrda qabul qilingan 433-sonli «O'zbekiston Respublikasining nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha 1996-2000-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi», 2000-2005-yilga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilingan va qator tadbirlar ishlab chiqilgan. Eng awalo, nogironlikning oldini olish, nogironlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularning ruhiyatini yaxshilash va sog'lomlashtirish. nogironlikni ilk bor aniqlash, saralash, maxsus ta'lim-tarbiya berish va korreksion-pedagogik ishlar orqali korreksiyalash, kasbga yo'naltirish, hayotga moslashtirish, jismoniy tarbiyalash, nogironlar bilan Lshlash uchun kadrlar tayyorlash masalalariga oid qonun va buymqlar mayjuddir.

Ko'rinib turibdiki, nogiron, alohida yordamga muhtoj bolalar ham zamon talabigajavob beradigan ilmiy bilimlarning elementarasoslarini egallashi, hayotda o'z o'mini topa olishlari haqida davlatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridayoq g'amxo'rlik

qila boshlagan. O'zbekiston Respublikasida barcha maxsus ta'lim-tarbiya muassasalari davlat ixtiyorida ekanligi, bu tashkilotlarni davlat mablag' bilan ta'minlashi nazarda tutiladi. Maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarining faoliyati davlat tomonidan boshqarilib boriladi. Shu kabi tadbirlar maxsus ta'lim ustidan davlatning siyosatini amalga oshirish, o'quv reja va dasturlarining yagona bo'lishini ta'minlash imkoniyatini beradi. Nogiron bolalarning barcha turi uchun maxsus maktab, maktab-internatlar, sog'lomlashtirish sanatoriyalarida ta'limning bepul ekanligini ta'kidlash mumkin.

Shuni aytish zarurki, maxsus ta'lim tizimining o'ziga xos bo'lgan tomoni — uch vazirlik: Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy ta'minot vazirligi tasarrufida ekanligidir.

Yordamchi maktabda o'quvchilar nazoratsiz qolmasligi uchun moddiy imkon bo'lgan maktablarda kuni uzaytirilgan guruhlar tuzilgan, yetim bolalar uchun bolalar uylari, maxsus maktab-internatlar tashkil etilgan:

maktabgacha tarbiya - aqli zaif bolaning ilk yoshidan 7-8 yoshigacha;

- boshlang'ich ta'lim - 1-4-sinflar;
- o'rta maxsus ta'lim - 5-9-sinflar;

• kollej — aqli zaif o'quvchilarning qobiliyatli va kasb-hunarga qiziqqan hamda o'qishni davom ettirishga layoqatli bo'lgan bolalarni maxsus guruhlarda (kollejlarda integratsiya usulda) o'qitishi kasb-hunar ta'limi bandlarigina taalluqlidir. Chunki aqli zaif o'quvchilar boshqa yuqori darajada ta'lim olishlariga ularning aqliy nuqsonlari imkon bermaydi. Lekin kasb-hunar kollejlarda aqli zaif o'quvchilarning nuqson darajalari inobatga olingan holda ta'lim olishlari mumkin.

- Maxsus ta'lim tizimida birinchi bosqich — maxsus maktabgacha tarbiya

Maxsus maktabgacha tarbiyaning asosiy vazifasi maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni sog'lom va aqliy darajalarini mumkin qadar yuqori darajada korreksion rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, sog'lom va yetuk qilib tarbiyalash, nutqini korreksion rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Gohida 6—7 yoshgacha bolaning maktabga tayyor emasligiga asos bo'lganda 8 yoshigacha ham maxsus bog'chada qoldiriladi. Ba'zan maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar bog'chalarda ham tarbiyalanadilar, lekin ular bilan logopedning jiddiy shug'ullanishiga to'g'ri keladi. Ota-onalar bilan birgalikda korreksion ish olib boriladi.

Maxsus ta'limda maktabgacha oligofrenopedagogika oligofrenopedagogika fanining muhim sohasi bo'lib, korreksion tarbiyaning maktabgacha tarbiya

yoshi va aqliy nuqson bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni ochib beradi. Aqli zaif bolalarning ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitlarida ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va korreksion-pedagogika fanining umumiy nazariy qoidalariga tayanadi. Maktabgacha oligofrenopedagogikasining asosiy qoidalari quyidagilardir: maxsus maktabgacha tarbiya berish masalalariga va avvalo axloqiy tarbiya masalasiga milliy, sharqona tarbiya berish, milliy va mafkuraviy tarbiya berish tamoyili o'z-

o'ziga xizmat qilishga o'rgatish asos qilib olinishi kerak. Maxsus ta'lim tizimida dastlabki ta'lim bo'lgan maktabgacha tarbiya oligofrenopeda-gogikasi aqli zaif bolalarni tarbiyalashda eng muhim bo'lgan tarbiya maskani va binobarin mafkuraviy muassasadir. Shu munosabat bilan milliy-mafkuraviy va tarixiy bog'langanligi tufayli ham mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan keyin isloh etilgan maxsus xalq ta'limi tizimining prinsipial xususiyatlariga amal qilinadi:

1. Maxsus maktabgacha tarbiyaning (oligofrenopedagogikaning) maqsadi - aqli zaifbolalarshaxsini har tomonlama garmonik rivojlantirishdir. Maktabgacha oligofrenopedagogika ilk yoshdagi, maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarni korreksion tarbiyalash vazifalarini ishlab chiqishga asos qilib olingan. Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni milliy, mafkuraviy ruhda tarbiyalash vazifalari faqat jamiyatimiz sharoitlarida ijtimoiy tarbiya bilan oila tarbiyasining birligida amalga oshiriladi.

- Oligofrenopedagog (logoped) rahbarligida tevarak-atrofdagi borliq haqidagi bilimlar tizimida berilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani, xilma-xil faoliyat turlaridagi, shuningdek, milliy, mafkuraviy tarbiya mezonlari va axloq-odob qoidalarida tevarak-atrofdagilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardagi malaka va ko'nikmalarni mumkin qadar yuqori darajada o'zlashtirib olish aqli zaif bola shaxsini korreksion rivojlantirishning asosini tashkil etadi, maktabgacha oligofrenopedagogika (jismoniy, aqliy, axloqiy, go'zallik tarbiyasi, ekologik tarbiya, mehnat tarbiyasi) tufayli ijtimoiy-tarixiy tajribalar qo'llanilib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning elementar bilimlarni o'zlashtirib olishi mumkin bo'ladi.

Maktabgacha oligofrenopedagogikaning maqsadi hamda vazifalarini korreksion tarbiya va korreksion rivojlantirish muammolarini qarab chiqish vaqtida aqli zaif bolalar shaxsining bundan keyingi qaror topishini belgilovchi bosqich sifatida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalik bosqichlari ajratib ko'rsatiladi. Bunday yondashish korreksion tarbiya va korreksion rivojlantirish jarayonlarining bosqichma-bosqich vorisiyligi yuqoriga qarab boradigan oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga qarab boradigan tusda deb tushunishini ta'minlaydi.

- Maxsus maktabgacha oligofrenopedagogika maxsus tarbiya, korreksion rivojlanish va aqli zaif bolalarning ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish jarayoni ularning faol ishi davomida amalga oshiriladi. Manashu usubiy qoidaga tayangan holda tarbiya jarayoni aqli zaif bola faoliyatining asosiy turlarida (predmetlar bilan shug'ullanish, o'yin va mehnat faoliyatida) amalga oshirib boriladi.

5. Aqli zaif bolalarni korreksion tarbiyalash va kamol toptirish muammolariga ularning individual xususiyatlarini, aqliy nuqson buzilishi darajalarini inobatga olgan holda uzluksiz yondashish - ularga korreksion tarbiya berish jarayonlarining birligi, o'ziga xosligi va o'zaro bog'liqligini amalga oshirishga yordam beradi. Bunda tarbiya asosiy yetakchi rol o'ynaydi. Bu esa korreksion ta'lim-tarbiyaning vazifalarini belgilashga, uning mazmuni, vositalari, uslublarini hamda tashkil etishni talab qilish imkonini beradi. Shunday qilib,

maktabgacha oligofrenopedagogikada maxsus maktabgacha muassasalarda aqli zaif bolalarning korreksion masalalarini qarab chiqishga yaxlit psixologik-pedagogik nuqtai nazardan yondashiladi. Bu oligofrenopedagogika, oligofrenopsixologiya va aqli zaif bolaning korreksion rivqjlanishi haqida boshqa fanlar bilan bog'liq holda olib boriladi. Shu bilan bir paytda maktabgacha oligofrenopedagogikaning ilmiy asoslarini kengaytirib boradi.

XULOSA

Ammo, shunga qaramay, shaxsiyatni axloqiy shakllantirish jarayoni 8-sinfning ommaviy va maxsus (tuzatish) maktablari uchun bir xil, chunki har qanday shaxs. o'quv muassasasi oldiga ijtimoiy moslashuvchan shaxsni, zamonaviy jamiyat talablariga moslashgan, mustaqil hayotga tayyor bo'lgan va unda ishlaydigan shaxsni tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan.

Axloqiy tarbiyaning tamoyillari mahalliy pedagogikada mavjud maqsadlilik, tarbiyani hayot bilan bog'lash, jamoada tarbiyalash, talabalarning yuqori faolligi va tashabbusi, o'quvchining shaxsiga hurmat va unga bo'lgan talablarni yoshini hisobga olgan holda taqdim etish. individual xususiyatlar, o'quv jarayonining birligi va yaxlitligi.

Bu barcha printsiplar aqlan zaif o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishning asosini tashkil etadi.

Bolalarni huquqiy tarbiyalash kontseptsiyasining mohiyati-mohiyati. Tuzatish maktabi o'quvchilarining huquqiy bilimlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Maxsus maktabda bolalarni huquqiy tarbiyalash bo'yicha sinf va sinfdan tashqari tadbirlar.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlari. Og'zaki usullarning xususiyatlarini va ularning alohida ehtiyojli bolaning rivojlanishiga ta'sirini o'rganish. Yordamchi korreksiya maktabida bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuter va axborotli texnologiyalarini ishlab chiqishni tashkil etishning 2001-2005 yillardagi taraqqiyot Dasturi, «Internet» xalqaro axborot tizimiga keng ko'lamli kirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (23 may 2001 yil, № 230).

2. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4-oktyabrdagi 400-sonli qarori.

3. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish modellari va ularning sinflari. // J. Fizika, matematika va informatika, - 2014. -№ 5. - B. 50-56

4. Abduqodirov A.A., Xaitov A., Shodiev R. Axborot texnologiyalari / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - T.: O'qituvchi, 2013. - 144 b.

5. Avazov SH. Amaliy kasbiy ta'lim metodikasi. Toshkent. - 2014 y. - 72 bet.

6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T.: TDPU, 2013. - 174 b.

7. Avazboev O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, 2013.

8. Begimqulov U. Masofaviy o'qitish va pedagogik ta'lim // Pedagogik ta'lim, - Toshkent, 2013. -№5. -B.19-21.

9. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'lim tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar. -T.: O'qituvchi, -2015. - 206 b.

INTERNET SAYTLARI:

1. www.mail.ru

2. www.ilm.uz.

3. [www. Ziyo-NET](http://www.Ziyo-NET).